

SHE'RIYATDA INSON RUHIYATINING BADIY IFODASI

(Usmon Azim she'riyati misolida)

Ortiqova E'tibor Shuhratovna

Qarshi Davlat Universiteti, tadqiqotchi

Kirish: Zamonaviy o'zbek adabiyotining taraqqiyotida avtopsixologik lirikaning tutgan o'rni va badiiy-estetik ahamiyati tobora ortib bormoqda. She'riyatda inson ruhiyati, ichki kechinmalari, shaxsiy his-tuyg'ularining badiiy tahliliga asoslangan lirik yo'nalish — avtopsixologik lirika deb nomlanadi. Bu lirika turida lirik subektning ichki dunyosi, hayotga, zamonga, o'ziga va atrof-muhitga nisbatan individual munosabati poetik vositalar orqali teran ifoda etiladi. Avtopsixologik lirikada muallif "men"i badiiy makonning markaziga chiqadi va uning orqali insonning borliqdagi o'rni, ruhiy iztiroblari, ichki qarama-qarshiliklari ifodalanadi. Olim Dilmurod Quronov ta'biri bilan aytganda "lirik kechinma bevosita shoir tilidan ifoda etilgan she'r"³³

Avtopsixologik lirikaning asosiy mohiyati shundan iboratki, u o'quvchini shoirning shaxsiy olami, ruhiy kechinmalari va falsafiy mushohadalari bilan yuzma-yuz qiladi. Bu lirika turida hissiy ekspressivlik, ichki monolog, ziddiyatli holatlar, ruhiy portretlar poetik vositalar bilan ifodalanadi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda insonning ong holatlari, ijtimoiy voqelikdan begonalashuvi, hayotiy anglashlar va borliq.

Bunday lirikaning adabiyotdagi yana bir muhim o'rni shundaki, u jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlarni badiiy ifodalashda kuchli vositaga aylanadi. Lirik subyektning shaxsiy iztiroblari, ruhiy kechinmalari orqali muayyan davr muammolari, ijtimoiy bosimlar va shaxsiy tanlovlar to'g'risidagi murakkab holatlar aks ettiriladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, avtopsixologik lirika individual ruhiyat orqali kollektiv onging ramziy ifodasiga aylanadi.

Asosiy qism: O'zbek she'riyatida bu yo'nalish ayniqsa mustaqillik yillarida sezilarli darajada rivoj topdi. Usmon Azim, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Jamol Kamol, kabi shoirlar ijodida shaxsiy kechinmalar, ichki qarama-qarshiliklar, ontologik izlanishlar asosiy poetik tamoyilga aylandi. Ularning asarlarida "men" obrazining kuchayishi, ruhiy tahlilga urg'u berilishi, hayot voqeliklarini individual idrok orqali anglash harakati kuzatiladi. Bu holat yangi o'zbek she'riyatining murakkablikka, ichki anglashga, ruhiy tahlilga yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, Usmon Azim — o'zbek zamonaviy she'riyatida ichki falsafiy teranlik va ruhiy tahlilga asoslangan poetik uslubi bilan ajralib turuvchi taniqli shoirlardan biridir. Uning ijodida lirik qahramon shaxsning ichki iztiroblari, ruhiy sargardonligi, hayot haqidagi mushohadalari orqali namoyon bo'ladi. Lirik qahramon nafaqat ehtiros va tuyg'ularni, balki fikr va falsafani ham o'zida mujassam etgan ruhiy siymo sifatida she'riyat markaziga aylanadi. Usmon Azim she'rlarida lirik qahramon aksar hollarda: xayoliy emas, balki

³³ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Тошкент. "Академнашр" нашр, 2013 йил

avtopsixologik siymo, ruhiy bezovtalikdagi inson, o'zligini angelayotgan, shubhalanuvchi, izlanayotgan qalb egasidir. Lirik qahramon — bu she'rdagi ichki "men", u orqali shoir shaxsiy va ijtimoiy ruhiy kechinmalarini ifoda etadi. Shoir she'riyatida ruhiy kechinmalarning asosiy yo'nalishlari:

1. Ruhiy sargardonlik

Usmon Azim she'rlaridagi lirik qahramon doimo "o'zini izlaydi", "o'zligi bilan yuzmayuz keladi" va ko'p hollarda "javobsiz savollar" ichida qoladi. Bu holat ruhiy iztirobni, inson qalbidagi xalosiyyatga intilishni namoyon etadi.

"Kimman o'zi? So'ramayman.

Javobini ko'nglim bilar."

Kimman o'zi? Nimaga keldim?

Tinchlikda ham tinchigim yo'qdir.

Qalam bilan o'lchadim yo'lim,

Yurak bilan o'lchadim dunyo³⁴.

Bu she'rda lirik qahramon o'zining hayotdagi o'rnini, yo'nalishini, qadriyatlarini so'roqqa tutadi. Shaxsiy so'roqlar orqali u butun insoniy ma'nodorlikni izlaydi. Bu satrlarda lirik qahramon javobsizlikning o'zida ham bir ma'no, bir taslimlik borligini his etadi. Shoirning "O'zim bilan suhbat" she'rida quyidagi misralar avtopsixologik lirikaning markaziy jihati — shaxsning o'ziga murojaati ko'zga tashlanadi. .

Bu she'rdagi "Kimman o'zi?" savoli lirik qahramonning ekzistensial izlanishiga ishora. U o'z mohiyatini tushunishga, hayotdagi maqsadini anglashga harakat qiladi. "Qalam bilan o'lchadim yo'lim" iborasida ijod va fikr vositasida hayotga baho berish aks etgan bo'lsa, "yurak bilan o'lchadim dunyo" — shaxsiy hissiyotlar asosida dunyo bilan muloqotni anglatadi. Avtopsixologizm: Lirik qahramon ichki ziddiyat, tinimsiz savollar va ma'no izlash bilan ruhiy jarayonni boshdan kechirmoqda.

O'zim bilan suhbatlashdim kecha,

Yurakda to'lib yotardi so'zlar.

Men bilan gaplashmas edi hech kim,

Men esa o'tmishga tutdim nazar³⁵.

Lirik qahramon tashqi dunyo bilan aloqadan uzilgan; u faqat o'zi bilan "suhbat"da. U "o'tmishga nazar tashlash" orqali shaxsiy tajribasini qayta anglashga, xulosa chiqarishga harakat qiladi. She'rdagi "yurakda to'lib yotardi so'zlar" ifodasi ichki tuyug'u va so'zlanmagan dardning mavjudligini anglatadi. Avtopsixologizm: Shoir ichki muloqotga kirish orqali ruhiy tozalanishni boshdan kechirmoqda. Bu nafaqat tuyug'u, balki ruhiy kechinmaning murakkab shaklidir.

³⁴ Azim, Usmon. Tунлар ва туйғулар. — Тошкент: "Шарқ", 2001. 18 -бет

³⁵ Azim, Usmon. Tунлар ва туйғулар. — Тошкент: "Шарқ", 2001. -18 бет

Kechagi men — bugungi menga begona,
Ko'zguda o'ziga begona bir yuz.
Nima bo'ldi menga, qayga ketdim?
Yoki hayot meni aldab keti?³⁶

Bu she'rda shaxsiy inkor va ruhiy o'zgarishlar aks etgan. "Kechagi men" va "bugungi men" o'rtasidagi ziddiyat — insonning o'zi bilan kelisha olmasligi, o'zligini yo'qotish xavfini bildiradi. "Ko'zguda o'ziga begona bir yuz" satridan ko'rinadiki, u hatto o'zini taniyotgan emas. Bu she'rda ichki parchalanish holati bor. Lirik qahramon o'tmish, hozir va kelajak o'rtasidagi ruhiy uzilishni his qilmoqda.

Usmon Azimning avtopsixologik lirikasi — uning shaxsiy ruhiy kechinmalari, falsafiy mushohadalari va qalbining chin ovozi sifatida she'riy shaklda namoyon bo'ladi. Lirik qahramon o'zi bilan suhbatda, tanbehda, mulohazada va izlanishda yashaydi. Bu orqali shoir:inson tabiati va ruhiyatiga kirib boradi, tuyg'u va fikr uyg'unligini yaratadi, o'quvchini ham o'zi haqida o'ylashga undaydi.

2. Tashvish va hayot haqida mushohada

Usmon Azim — bu yo'nalishning eng mukammal namoyon bo'luvchisi. Uning she'rlaridagi lirik qahramonlar jamiyatdan uzilgan emas, balki jamiyatni o'z qalbidan o'tkazib qabul qiluvchi shaxslardir. She'rlardagi qahramon faqat hissiyot emas, balki fikr inson hamdir. U hayot, borliq, o'lim, vaqt, yurak, muhabbat kabi mavzularga daxldor ruhiy kechinmalarni bayon qiladi. She'rni o'qir ekansiz, qalb va aql birgalikda harakatlanayotganini his etasiz.

"Tirikmanmi, deb so'rayman o'zimdand,

Jim turgay meni ko'zgu ham, devor ham."³⁷ Bu misrada ruhiy yakkalik va ichki tahlilning uyg'un holati ko'rinadi.

Shoir shaxsiyatining badiiy ifodasi, avvalo, o'ziga xos avtobiografik elementlar, shaxsiy iztirob va orzular, ruhiy izlanishlar bilan bog'liq. Biroq bu shaxsiylik faqat muallifga xos emas, aksincha, u orqali o'quvchi o'zini tanib oladi. Chunki chinakam lirika o'quvchini shoir bilan ruhiy darajada bog'laydi. Shuning uchun ham shoir shaxsiyati poetik matnda ramziy va umumlashtiruvchi obrazga aylanadi. Misol uchun, Usmon Azim she'rlarida shoir shaxsiyati — falsafiy mushohada yurituvchi, mavjudlikni tahlil qiluvchi, haqiqatni izlovchi subekt sifatida gavdalanadi. Bu shaxsiyat zamonaviy insonning ruhiy o'zgarishlari va zamon bilan kurashini aks ettiradi:

"Bir savol ko'nglimni ko'mib ketadi,
Javoblar ichida javob yo'q menga..."³⁸

³⁶ Азим, Усмон. Тунлар ва туйгулар. — Тошкент: "Шарк", 2001.19- bet

³⁷ Азим, Усмон. Тунлар ва туйгулар. — Тошкент: "Шарк", 2001.29- bet

³⁸ Азим, Усмон. Сен кетгансан. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2004.34 bet

Bu satrlarda shoirning o'z "men"i orqasida universal insoniy iztirob yotadi. Shoir shaxsiyati ko'pincha badiiy timsollar, ramzlar, ichki dialog orqali ifodalanadi. Masalan, yolg'iz daraxt, so'nayotgan sham, ko'zguga qaraydigan inson yoki qush obrazlari orqali shoir o'z holatini badiiylashtiradi. Bunday poetik tasvirlar orqali u o'zining shaxsiy his-tuyg'ularini nafaqat estetik shaklda, balki falsafiy darajada ham anglatadi.

Shoir shaxsiyati nafaqat poetik obraz, balki ijodiy o'zlikni anglashning markazidir. Adabiy jarayonda har bir shoir o'z ovozi, o'z nigohini yaratishga intiladi. Bu jarayonda u o'z ruhiy olamini poetik matn orqali shakllantiradi. Shu boisdan, shoir shaxsiyatining ifodasi – faqat ruhiy tafakkur emas, balki adabiy-estetik makon qurilishi ham hisoblanadi.

3. *Tanbeh va o'zini tanqid qilish*

Lirik qahramon ko'p hollarda o'zini tanqid qiladi, xatolarini tan oladi, ruhiy hisob-kitobni boshidan o'tkazadi. Bu jarayonda u o'ziga tanbeh beradi, lekin ayni paytda kechirim so'ramaydi — u faqat tushunishga intiladi

"Kechagi men – bugungi menga begona,

Shuncha yil yashab, kim bo'ldim o'zi?"³⁹ Bu ruhiy kechinma o'zini anglashga qaratilgan og'riqli savollar orqali namoyon bo'ladi. Bu she'rda lirik qahramon o'zining hayotdagi o'rnini, yo'nalishini, qadriyatlarini so'roqqa tutadi. Shaxsiy so'roqlar orqali u butun insoniy ma'nodorlikni izlaydi. Shoirning "Yolg'izlik" she'rida quyidagi misralarni ko'rishimiz mumkin.

Sukunatga go'yo ko'nikdim,

So'zlarim ham eshitmay qola.

Yolg'izlikka do'st deb yuribman,

Yurak menga gapirmay qola.⁴⁰

Bu she'rda yolg'izlik nafaqat ijtimoiy, balki ruhiy izolyatsiya sifatida ifoda etilgan. Shoirning "yurak menga gapirmay qola" degan satrlari — ichki aloqaning uzilishi, shaxsiy o'ziga begonalashuv belgisidir.

Usmon Azim lirik qahramonning ichki kechinmalarini nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki obraz, simvol va ramzlar orqali ham ifoda etadi:

Qo'rqinchsiz sukut — ruhiy to'xtam holati; Tinimsiz yomg'ir — ko'ngildagi bitmas iztirob; Ko'zgu va soyalar — o'ziga nisbatan murakkab munosabatlar timsoli. Uning she'rlarida ruhiy kechinma ko'pincha tabiat, fasllar, kecha-kunduz ramzlari orqali metaforalashtiriladi.

Xulosa: Avtopsixologik kechinmalar faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki umuminsoniy ruhiy iztiroblar bilan bog'lanadi. Ruhiy izlanishlar orqali u yetimlik, yo'qotish, tanglik,

³⁹ Azim, Usmon. Sen ketganсан. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2004.34- bet

⁴⁰ Azim, Usmon. Sen ketganсан. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2004.35- bet

o‘lim, haqiqat va mavjudlik kabi falsafiy mavzularni ko‘taradi. Tuyg‘ular qalabda shakllanib, insonning borliqdagi o‘rni haqidagi fikrlar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Boshqa shoirlarda masalan, Erkin Vohidov — ko‘proq milliy g‘urur, vatanparvarlik va milliy o‘ziga xoslikka e‘tibor qaratsa; Rauf Parfi she‘riyatida shaxsiy kechinmalar ko‘proq ijtimoiy yoki milliy ruhda ifodalanadi. Shavkat Raxmon she‘rlarida avf, muhabbat, intizorlik alohida kuch bilan, klassik lirika uslubida ifoda etilgan.

Usmon Azimda: Lirik “Men” muayyan shaxs emas — u barcha insonlar uchun umumiy ichki inson, falsafiy subyekt. Uning she‘rlarida “Men” — nafaqat Usmon Azimning o‘zi, balki o‘quvchining ham ichki ovozidek. Usmon Azim — she‘rni ko‘p gapsiz, ruhiy sukut orqali gapiruvchi shoir. Uning she‘rlaridagi “Men” — har bir insonning ichki “Men”idir. Shu orqali u boshqa shoirlardan ajralib turadi. Avtopsixologik lirika unda shovqinli iztirob emas, balki qalbning sukutli o‘zini anglashidir.

Usmon Azim she‘riyatida lirik qahramon — ruhiy hayotida juda boy, doimo o‘zi bilan mulohazada bo‘lgan, hayotga va o‘ziga nisbatan mas‘uliyat his etuvchi shaxsdir. Uning ruhiy kechinmalari o‘zbek lirikasida avtopsixologizm, falsafiylik va inson psixologiyasini ifoda qilishning yangi bosqichini yaratadi. Shoirning she‘rlari orqali lirik qahramon nafaqat o‘ziga, balki o‘quvchiga ham ruhiy oyna taqdim etadi — unda har kim o‘zini ko‘rishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдулла Ортиқов. Замонавий ўзбек лирикасида шахсий изланишлар. — Тошкент: Ижод, 2010.
2. Азим, Усмон. Тунлар ва туйғулар. — Тошкент: “Шарқ”, 2001.
3. Азим, У. Сен кетгансан. Тошкент: Фафур Гулом нашриёти, 2004.
4. Абдулла Қаҳҳоров. Ўзбек лирикасида шахсийлик тенденцияси. — Тошкент: Фан, 2006.
5. Karimova M. Psixologizm va lirik she‘riyatda ichki kechinmalar. — Тошкент: Фан, 2015.
5. Саид Аҳмадов. Усмон Азим — фалсафий фикр ва руҳий ҳолат шоири. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, №4.
6. Турсунов, Ж. “Усмон Азим ижодида лирик қаҳрамон масаласи.” Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. №4.
7. Ҳамидулла Болтаев. Усмон Азим шеърлятида фалсафий-руҳий ифода. // Тарих ва адабиёт. — 2014, №2.
8. Қосимов, А. “Ўзбек шеърлятида фалсафийлик.” Адабий мерос, 2020.